

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

KARIMOVA XURRIYAT SHARIPOVNA

**O‘ZBEK TILIDA “JASORAT” SEMALI LEKSEMALARNING
SEMANTIKASI, STRUKTURASI VA LEKSIKOGRAFIK TALQINI**

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Qarshi – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Table of contents of the abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological sciences**

**Оглавление автореферата доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

Karimova Xurriyat Sharipovna

O‘zbek tilida “jasorat” semali leksemalarning semantikasi, strukturasi va leksikografik talqini..... 5

Karimova Khurriyat Sharipovna

Semantics structure and lexicographic interpretation lexeme of “courage” in the Uzbek language..... 23

Каримова Хуррият Шариповна

Семантическая структура и лексикографическая интерпретация семантических лексем «смелости» в узбекском языке..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works
Список объявленных работ..... 47

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

KARIMOVA XURRIYAT SHARIPOVNA

**O‘ZBEK TILIDA “JASORAT” SEMALI LEKSEMALARNING
SEMANTIKASI, STRUKTURASI VA LEKSIKOGRAFIK TALQINI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2022.4.PhD/Fil.2826 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Qarshi davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezume)) Qarshi davlat universiteti veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tojiyeva Gulbahor Nomozovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Pardayev Azamat Baxronovich
filologiya fanlari doktori, professor

Islomov Ikrom Xushboqovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "_____" soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz). Qarshi davlat universiteti 2-binosi, 202-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel.: (0375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "_____" kuni tarqatildi
(2023-yil "_____" dagi _____-raqamli reyestr bayonnomasi).

G.X. Ernazarova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor



N.E. Yuldosheva
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, filologiya
fanlari doktori (DSc), dotsent

X. Jabborov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida til va ma'naviyat munosabati assotsiativ va kognitiv munosabatda yoritilib, uning amaliy ahamiyati globallashuv davrida jamiyatdagi shaxs ma'naviy sifatlarini milliy, ma'naviy, tarixiy jarayonlardan kelib chiqib izohlanmoqda. Bugungi globallashuv davrida jamiyatni, birinchi navbatda, yoshlarni mafkuraviy va g'oyaviy jihatdan muhofaza etish insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bo'lib kelmoqda. Shu sababli jahon tilshunosligida “ma'naviyat”, “axloq”, “e'tiqod”, “jasorat” tushunchalarining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini to'g'ri va aniq izohlash bo'yicha ko'plab nazariy va amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tushunchalarning lisoniy tizimdagi o'rni aniqlamasdan turib mafkuraviy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yaxlit sistema sifatida idrok etish mumkin emas. Xususan, “ma'naviyat”, “axloq”, “e'tiqod”, “jasorat” tushunchalarining til tizimidagi mikrosistemalarini antroposentrik yo'nalishda ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda shaxs ma'naviy sifatlari va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni masalasini aniqlash hamda ma'naviy-ma'rifiy leksikaning lisoniy tabiatini ochib berish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada, jumladan, “ma'naviyat”, “jasorat” tushunchalarini ifodalovchi birliklarning semantik munosabatlarini tiklash, bu semantik munosabatlarni hosil qiluvchi unsurlarni aniqlash, atov birliklarning semantik va paradigmatic munosabatlari asosida yotuvchi lisoniy ziddiyatlarini lison va nutq dixotomiyasi tamoyillari asosida tavsiflash va bu sohadagi mavjud nazariy qarashlarni takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida shaxs ma'naviy sifatlarini ifodalovchi til birliklarining tizimli tadqiq qilinayotganligi, milliy ma'naviyatni aks ettirish imkoniyatlari bugungi ilmiy tadqiqotlarda o'z ifodasini topmoqda. “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma'naviy va ma'rifiy sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar ham g'oyat muhim ahamiyatga ega. Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi – ma'naviyatdir. Milliy qadriyatlarimizni yanada rivojlantirish, o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'rni va nufuzini oshirish bilan bog'liq vazifalar doimiy kun tartibimizda turadi”¹. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, milliy ma'naviyatni aks ettirish imkoniyatlarini aniqlash, shaxs ma'naviy sifatlarini ifodalovchi birliklarni semantik-struktur, konseptual hamda leksikografik aspektda ochib berish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o'zbek tilini

¹ Yangi saylangan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi / Yangi O'zbekiston, 2021-yil 7-noyabr. №223 (479).

yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi"gi farmonlari, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi, 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2022-yil 14-oktabrdagi 595-son O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli qator me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. "Jasorat" konsepti kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, tilshunoslik, siyosatshunoslik, sotsiologiya va etnopsixologiya kabi bir qator fanlar uchun tadqiqot obyekti hisoblanadi. Turli tizimli tillarda "mardlik" konseptiga bo'lgan qiziqish ko'plab tadqiqotchilarning diqqat markazida bo'lib kelgan. Jumladan, R.Osipov "botirlik" tushunchasining nemis va ingliz tillarida leksik-semantik ifodalanganligini badiiy matnlar misolida diaxroniyada o'rgangan². A.A.Morozova o'z tadqiqotida³ "ayol" va "erkak" konseptlarining stereotiplari va ularning kognitiv tilshunoslikdagi mohiyatini ochib berishga e'tiborni qaratgan. S.Zikova dissertatsiyasida "Dovyuraklik" konseptining olam lisoniy manzarasida realizatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari: rus va ispan tillari materiali asosida tahlil qilingan⁴. I.Tishenko maqolasida "Botirlik" konseptining fransuz va rus tillaridagi evolyutsiyasi haqida fikr yuritgan⁵. Biz olib borayotgan tadqiqotimiz yuqoridagi ishlardan quyidagi lisoniy omillar bilan farq qiladi: 1) o'zbek tilida "jasorat" konsepti qo'llanishining kognitiv va leksik-semantik xususiyatlarining ochib berilishi, 2) hozirgi zamon o'zbek tilida "jasorat" freymining turli xil konseptual belgilar bilan ifodalanishini aniqlash, 3) o'zbek

²Осипов Р.С. Лексико-семантическая репрезентация понятия «мужество» в немецком и английском языках (диахронический аспект): диссертация ... кандидата филологических наук: 10.02.20 / Осипов Роман Сергеевич; [Место защиты: Московский государственный областной университет]. – М., 2016. – 144 с.

³Морозова А.А. Лингвокогнитивное содержание гендерных стереотипов женственности и мужественности (на материале испанского языка). Диссертация на соискание ученой степени кандидата филологических наук. – Самарканд, 2011. – С. 177.

⁴Зыкова С.А. Специфика реализации концепта «мужественность» в языковой картине мира: на материале русского и испанского языков тема диссертации и автореферата по ВАК 10.02.20, кандидат филологических наук. – Нижневартовск, 2020.

⁵Тищенко И.Е. Эволюция концепта «смелость» во французском и русском языках. Статья поступила в редакцию журнала 18 декабря 2006 г., принята к печати 25 декабря 2006 г.

tillarida “jasorat” konsepti ifodalanishining o‘ziga xos lingvomadaniy xususiyatlarini badiiy matnlarda tahlil qilish.

O‘zbek tilshunosligida ma’naviyat tushunchalarini ifodalovchi atov birligi falsafiy-gnoseologik aspektda keng o‘rganilmoqda. Bu borada qisqa davr mobaynida bir qancha asarlar yuzaga keldi, ilmiy-nazariy va amaliy anjumanlar tashkil etildi. Shuningdek, filologik yo‘nalishda maxsus tadqiqotlar bajarilgan⁶, maqolalar yozilgan⁷, lug‘atlar tuzilgan⁸.

Tilshunos B.Mengliyev maqolalarida bugungi kunda lingvoma’naviyatshunoslikda ma’naviyat muammosi, shaxsning ma’naviy takomillashuvi masalasi har qachongidan ham ko‘ra dolzarb ekanligini ta’kidlab o‘tadi⁹. G.Tojiyeva tomonidan “O‘zbek tili ma’naviy-ma’rifiy leksikasining mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti” (“milliy g‘oya” atov birliklari tizimi) mavzuidagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyada “birikma shaklidagi atov birliklarining til leksik tizimidan o‘rin olish mexanizmi, uning til sistemasidagi yaxlitlik, uzviylik va uzluksizlikni ta’minlashi dalillangan; milliy g‘oya tushunchalarini ifodalovchi atov birliklarining til leksik sistemasida tutgan o‘rni aniqlangan, ularning mazmun ifodalash salohiyati hamda lingvistik qiymati ochib berilgan; atov birliklarining tarixiy-etimologik, o‘z va o‘zlashma qatlamga oid mikrosistemalari hamda shakliy strukturalari tadqiq qilingan, ularning sodda, murakkab tiplari, bir komponentli, ikki komponentli va ko‘p komponentli turlari asoslab berilgan¹⁰. Tadqiqotchining “O‘zbek tilini “til va ma’naviyat mushtarakligi” tamoyili asosida tadqiq qilish masalalari” mavzusidagi filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasida esa til va ma’naviyat mushtarakligining semantik munosabati aks ettirilgan¹¹.

⁶Давурбоева Н.А. Фитрат драмаларида миллий озодлик ғоясининг талқини: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1988; Мамашукуров Ж.А. Ўзбек тилининг давлат тили сифатида ривожланишининг ижтимоий-сиёсий ва маънавий асослари: Фил. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999; Загыртдинова Ф.Б. Повышение функциональной грамотности населения как фактор укрепления независимости Республики Узбекистан: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1999; Тошбоев О.Ш. Миллий истиқлол мафкурасининг шаклланишида матбуотнинг ўрни: Филол. фан. номз. дисс. ... автореф. – Тошкент, 2000; Тўрахожаева А.Х. Мустақиллик шароитида ўзбек тили ижтимоий-сиёсий лексикасининг таракқиёти: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2012.

⁷Жумахўжа Н. Юксак маънавият белгиси // Халқ сўзи. – Тошкент, 1997. – 5 ноябрь; Маҳмудов Н. Миллий мафкура ва она тили // Халқ сўзи. – Тошкент, 2000. – 13 июнь; Қосимов Б. Жадидлар ва миллий мафкура // Тафаккур. – Тошкент, 2000. – № 3. – Б. 28-32; Йўлдошев Қ. Миллий ғоя ва адабий таълим // Ўзбекистон овози. – Тошкент, 2000. – 21 декабрь.

⁸Мустақиллик: Изоҳли илимий-оммабоп луғат. – Тошкент: Шарқ, 2000; Миллий ғоя: тарғибот технологиялари ва атамалари луғати. – Тошкент: Академия, 2007; Ғозиев С., Ибрагимова Г. Маънавият луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2007; Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати: – Тошкент: Академия, 2009; Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Тошкент: Ғафур Ғулом, 2013.

⁹Менглиев Б.Р. Тил бағридаги маънавият: лингвوماънавиятшунослик ва унинг истиқболлари ҳақида // “Маърифат”, 2018 йил, апрель; Тараққиёт ва маънавият // Маърифат, 2018 йил, 8 январь.

¹⁰Tojiyeva G. O‘zbek tili ma’naviy-ma’rifiy leksikasining mustaqillik yillaridagi taraqqiyoti (“milliy g‘oya” atov birliklari misolida): Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD)... diss. avtoref. – Samarqand, 2017. – B. 44.

¹¹Tojiyeva G. O‘zbek tilini “Til va ma’naviyat mushtarakligi” tamoyili asosida tadqiq qilish masalalari” Filol. fan.. dokt. (DSc)... diss. avtoref. – Qarshi, 2021. – B. 45.

Tadqiqotchi F.Yuldashev tomonidan “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasining “e’tiqod” ma’naviy guruhi atov birliklari tizimi¹² o’rganilgan. Y.N.Hojiyev “Alpomish” dostonida qo’llangan shaxs ma’naviy sifatlarini ifodalovchi atov birliklarini lingvistik va lingvoma’naviy tadqiq qildi¹³. Aynan ushbu muammo tipologik aspektda tadqiqotchi M.B.Ahmedova tomonidan maxsus tadqiq etilgan¹⁴. Bu tadqiqotlarda mavzuning umumiy qirralari yoritib berilgan bo’lsa-da, jasorat semali leksemalar lingvistik aspektda va monografik yo’sinda maxsus tadqiq etadigan qamrovli tadqiqot vujudga kelganicha yo’q.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog’liqligi. Mazkur ish Qarshi davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasidagi “O’zbek tilshunosligining nazariy va amaliy masalalari” mavzusidagi tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o’zbek tilidagi “jasorat” umumiy semali atov birliklarning struktur, semantik va leksikografik muammolarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

o’zbek tilidagi “jasorat” umumiy semali birliklarining leksik tizimda alohida lug’aviy-ma’naviy guruh sifatida barqaror o’ringa egaligini aniqlash;

“jasorat” umumiy semali atov birliklarning ma’nodoshlari va umumiy, xususiy semantik ma’nosi orqali qo’llanishidagi o’zaro faol va nofaoligi bilan xarakterlanishini ochib berish;

“o’zbek tilidagi “jasorat” umumiy semali atov birliklari ma’naviy va shakliy strukturasi yoritish;

“jasorat” tushunchasini ifodalovchi atov birliklarning konseptual lug’atda berilishi muammolarini o’rganish.

Tadqiqotning obyektini o’zbek tilidagi “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasiga oid “jasorat” umumiy semali atov birliklar tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti o’zbek tilidagi “jasorat” umumiy semali atov birliklarining semantikasi, strukturasi va leksikografik xususiyatidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tasniflash, tavsiflash, komponent tahlil, differensial-semantik, qiyosiy hamda konseptual, lingvomadaniy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o’zbek tilidagi “jasorat” umumiy semali birliklarining leksik tizimda alohida lug’aviy-ma’naviy guruh sifatida barqaror o’ringa egaligi atov birliklarning tarkibi ham boshqa mavzuviy guruhlar singari til tizimida shakl, mazmun va semantik strukturaga ega ekanligi isbotlangan;

¹²Yuldashev F. O’zbek tilining “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasi “e’tiqod” ma’naviy guruhi atov birliklari tizimi”: Filol. fan. bo’yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Termiz, 2021. – B. 52

¹³Хожиев Ю.Н. “Алпомиш” дostonидаги шахс маънавий сифатларини ифода этувчи атов бирликларнинг семантик-структур, концептуал ва лексикографик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD)... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – 56 б.

¹⁴Ахмедова М.Б. Ўзбек тилидаги “маънавият” ва инглиз тилидаги “spirituality” умумий семали атов бирликлари типологияси: Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD)... дисс. автореф. – Бухоро, 2019. – 49 б.

“jasorat” umumiy semali atov birliklarning ma’nodoshlari va umumiy, xususiy semantik ma’nosi orqali qo‘llanishidagi o‘zaro faol va nafaoligi bilan xarakterlanishi aniqlanib, atov birliklarning shakl va ma’no munosabatining strukturaviy va sistemaviy xususiyatlaridan kelib chiqadigan lisoniy va nolisoniy omillari mavjudligi dalillangan;

o‘zbek tilidagi “jasorat” umumiy semali atov birliklari shakliy strukturasi ko‘ra so‘z, sodda, qo‘shma, juft so‘z shakllarida hamda murakkab va barqaror birikmalar shaklida ham uchrashi, so‘z shaklidagi birikmalar tub va birikma shaklidagi atov birliklar sodda va murakkab birikma shaklidagi birliklarga bo‘linishi aniqlangan;

o‘zbek adabiy tilida “jasorat” umumiy semali atov birliklari ko‘lami kattaligi, ularda xalqning mental dunyosi va fikriy olami yorqin ifodalanishi, maqollar inson ma’naviyati, hayotiy tutumlarining shakllanishi va rivojida katta ahamiyatga molikligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“jasorat” umumiy semali atov birliklarning semantik xususiyati yoritilib, ushbu xususiyatning o‘zaro aloqadorligi, til leksikasidagi o‘rni aniqlangan;

“jasorat” umumiy semali atov birliklarining shakliy struktur xususiyatlari yoritilgan, shu asosda “jasorat” umumiy semali atov birliklarining qisqacha izohli lug‘ati yaratilgan hamda oliy o‘quv yurtlarining magistratura va bakalavriat bosqichlari talabarlari uchun “Semasiologiya”, “Lingvokulturologiya”, “Leksikografiya” fanlarining mashg‘ulotlarini tashkil etish va o‘quv adabiyotlarini yaratishda zarur manba bo‘la olishi asoslangan;

“jasorat” umumiy semali atov birliklari tizimining sinonimik va paradigmatic munosabatlari ochib berilgan hamda atov birliklarning paradigmatic xususiyatlarining yoritilishi natijasida uning “ma’naviyat” maydoni shakllanishiga xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi lingvistik tahlil metodologiyasi asosida shakllantirilgani, foydalanilgan usul va nazariy ma’lumotlar birlamchi ilmiy va uslubiy manbalarga asoslanganligi, tasniflash, tavsiflash, komponent tahlil, freymal hamda differensial-semantik tahlil usullaridan foydalanilgani, nazariy fikr hamda xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o‘zbek tili semasiologiyasi va leksikografiyasi, tilshunoslik va ma’naviyatshunoslik nuqtayi nazaridan o‘zbek tilidagi “jasorat” kategoriyasining leksik-semantik xususiyatlarining nazariy manbalarini yaratishda, darslik hamda qo‘llanmalarni takomillashtirishda, o‘zbek tilining zamonaviy akademik va o‘quv lug‘atlarini yaratishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tilshunoslik, xususan, mavjud lug‘atlardagi izoh va sharhlarni mukammallashtirishga, leksikologik ma’lumotlarni boyitishga, oliy ta’limdagi “Leksikologiya”, “Semasiologiya”, “Lingvokulturologiya”, “Leksikografiya” maxsus kurslarini takomillashtirishda, sistem-struktur hamda

antropotsentrik paradigmaning pragmatika kabi sohalarini rivojlantirishga hissa qo‘shishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. “Jasorat” umumiy semali atov birliklarni o‘rganish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

o‘zbek tilidagi “jasorat” umumiy semali birliklarining leksik tizimda alohida lug‘aviy-ma‘noviy guruh sifatida barqaror o‘ringa egaligi atov birliklarning tarkibi ham boshqa mavzuiy guruhlar singari til tizimida shakl, mazmun va semantik strukturaga ega ekanligi isbotlanganiga oid xulosalaridan 5120100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi uchun mo‘ljallangan “Hozirgi o‘zbek tili” darsligining “Leksika, leksik-semantik sath, leksikologiya va leksikografiya” deb nomlangan qismini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2018 yil 27 martdagi 274-son buyrug‘iga muvofiq 274-312 raqami asosida ro‘yxatga olingan). Natijada darslikdagi leksemada shakl va mazmun yaxlitligini tahlil va tasnif qilish talqiniga doir ma‘lumotlar nazariy va amaliy jihatdan boyitish imkonini bergan;

“jasorat” umumiy semali atov birliklarning ma‘nodoshlari va umumiy, xususiy semantik ma‘nosi orqali qo‘llanishidagi o‘zaro faol va nafaoligi bilan xarakterlanishi aniqlanib, atov birliklarning shakl va ma‘no munosabatining strukturaviy va sistemaviy xususiyatlaridan kelib chiqadigan lisoniy va nolisoniy omillari mavjudligi dalillanganiga oid xulosalaridan Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan PZ-2020042022 raqamli “Turkiy tillarning lingvodidaktik elektron platforma yaratish” nomli amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 1-iyundagi №04/1-1070-son ma‘lumotnomasi). Natijada turkiy tillarda “jasorat” semali leksemalarni lingvodidaktik elektron platformaga joylashtirishda ilmiy va amaliy xulosalar chiqarish imkonini bergan;

o‘zbek tilidagi “jasorat” umumiy semali atov birliklari shakliy strukturasi ko‘ra so‘z, sodda, qo‘shma, juft so‘z shakllarida hamda murakkab va barqaror birikmalar shaklida ham uchrashi, so‘z shaklidagi birikmalar tub va birikma shaklidagi atov birliklar sodda va murakkab birikma shaklidagi birliklarga bo‘linishi aniqlanganiga oid xulosalaridan Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining “Oltin voha” dasturidagi “Ochiq muloqot” dasturining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Qashqadaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 5-apreldagi 17-07/71-sonli ma‘lumotnoma). Natijada ushbu dastur uchun tayyorlangan materiallar mazmun jihatidan takomillashgan, ilmiy dalillar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari ilmiy ma‘ruza ko‘rinishida 2 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 3 ta maqola, shundan, 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya 120 sahifadan iborat bo‘lib, kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi ko‘rsatilgan, maqsad va vazifalari berilgan, obykti va predmeti tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, joriylanishi, aprotatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“O‘zbek tilida “jasorat” umumiy semali atov birliklari tizimi”** deb nomlangan bo‘lib, “Jasorat” tushunchasini ifodalovchi atov birliklarining o‘zbek tili lisoniy tizimidagi o‘rni, “jasorat” umumiy semali atov birliklarining tarixiy-etimologik, paradigmatik xususiyatlari kabi bo‘limlarni o‘z ichiga oladi.

Bugungi zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlaridan biri har bir xalq tilining so‘zlashuvchi xalq mentalitetiga diaxronik yondashuv doirasida lug‘at ma‘lumotlarini o‘rganishdan boshlanadi. Tilning lug‘at tarkibining mazmun mohiyatini zamonaviy tilshunoslik tadqiqi asosida tahlil qilish o‘rganilayotgan mavzuning xilma-xilligini ko‘rsatadi. Bu adabiy matnlarda yanada o‘zining leksik imkoniyatlarini ko‘rsata oladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda shaxs ma‘naviyatini shakllantirish va takomillashtirish masalasi barchamiz uchun g‘oyat dolzarb ahamiyatga ega. Shu sababli biz bugungi kunda ta‘lim-tarbiya sohasi orqali insonlarning qalbi va tafakkuriga bevosita ta‘sir o‘tkazadigan ma‘naviy dunyoqarashimiz, ma‘naviy sifatlarimiz, ma‘naviy o‘y-fikrlarimiz orqali barcha sohalaridagi faoliyatimizni yanada kuchaytirishimiz, yangi bosqichga ko‘tarishimiz zarur. Zero, ma‘naviyat – insonning kamolot cho‘qqisiga yetaklovchi mayoqdir. “Ma‘naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, iymon-etiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir. Chindan ham, agar odamzot bu dunyoda ruhan pok bo‘lib, irodasi baquvvat, iymoni butun, vijdoni uyg‘oq bo‘lib yashamas ekan, inson hayotining qanday ma‘nosi qoladi”¹⁵. Zotan, shaxs ma‘naviy sifatlaridan biri ma‘naviy jasoratdir. Insonlarning ma‘naviy takomillashuvida, albatta, talabchanlik, fidoyilik, shaxsiy e‘tiqod hamda ma‘naviy jasorat kerak bo‘ladi. Jasorat bilak kuchida emas, ma‘naviy tafakkur kengligidadir.

Olamning lisoniy manzarasida “jasorat” leksemasi o‘zbek xalqining lisoniy ongida qaysi tushunchalar bilan bog‘liqligini aniqlab olish muhim ekanligi sintagmatik munosabatda yanada yaqqol ko‘rinadi. Bu esa dissertatsiyada keltirilgan 31 ta

¹⁵ Karimov I. Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. – B. 13.

ma'naviy guruhlarning semantik tarkibini aniqlash va matndagi turli qo'llanishini amalga oshirish semantik tahlil usuli natijasida ro'y beradi.

“Jasorat” konseptining qonun va farmonlarida ifodalanishi ijtimoiy va siyosiy konseptosferasida o'z aksini topadi. Bu esa millat qahramonlari va shu jamiyatning tarixi, buguni va kelajagi haqida aniq tasavvurlarni hosil qiladi.

1.1.1-jadval

“JASORAT” KONSEPTINING IJTIMOY KONSEPTOSFERASI		
MUKOFOT NOMI	SOHA VAKILLARI	IJTIMOY MAQOMI
“Jasorat” medali	O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar xodimlari	Vatanparvar va fidoyili
“Jasorat” monumenti	Xalq qahramonlariga bag'ishlangan	Vatanparvarlik, fidoyilik, mehnatkashlik
“Ma'naviy jasorat” sohiblari	Saxovatpesha va mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini qaramog'iga olgan oilalarga	Mehribon va jonkuyar, mehribonlik va saxovatpeshalik
“Jasorat va matonat shahodatnomasi” sohibi	Ikkinchi jahon urushi qatnashchilariga	Vatanparvarlik va matonati
“Jasorat maktabi” muassasasi	Harbiy vatanparvarlik o'quvlarini tashkil etish	Vatanparvarlik va sadoqati
“Mardlik va jasorat” bayrami	Vatan himoyachilari kuniga	Vatanparvarlik va botirlik

Nutqda “jasorat” leksemasi quyidagi ma'nolarni bildiradi:

1. Ma'naviy (ehtiros, qat'iyat) jasorat va qobiliyat sifatida qo'rquvni yengish uchun ongli ravishda harakat qilish;
2. Tushkunlikka tushmaslik, qat'iy harakat, e'tiqodidan qaytmaslik;
3. O'z oldida har qanday muammolarga taslim bo'lmaslik uchun hayotga teran nazar tashlash;
4. Esankirab qolmaslik, muammolar oldida taslim bo'lmaslik, ma'naviy irodaning ahamiyati va ustunligini his etish;
5. Barcha muammolarni yengish uchun “jasorat”, “matonat”, “erkaklik g'ururining ustunligi”, “ayol matonati va sabri”, “so'zida tura olish”, “fikrida barqaror turish” kabi tushunchalarning mavjudligi.

Mazkur tushunchalar orqali “jasorat” leksemasi nutq jarayonida quyidagicha voqelanadi hamda mazkur qoidalarga asoslangan holda o'z aksini topadi.

1. Agar shaxs jismoniy yoki ma'naviy “xavf” ostida bo'lsa, boshdan kechirayotgan xususiyati og'ir bo'lsa yoki umuman qiyin vaziyatda qolgan bo'lsa, mard bo'lishi, “qo'rqoqlik” yo'lini tanlamasligi, o'zgalarga tuhmat qilmasligi, o'zini rag'batlantira olishi shartligi – jasorat;

2. O'zi o'ylagan narsani aytishi yoki amalgam oshirishida davom etishi uchun ma'naviy va jismoniy jasoratga ega bo'lishi, ya'ni “tanlagan yo'lida sobit qadam tashlashi” zarurligi – jasorat;

3. Insonlarning “ruhiy kuch”ga ega bo'lishi, ya'ni “ma'naviy sog'lom” ekanligi – jasorat;

4. Qo'rqoqlik (o'z manfaatini o'ylab ish tutish) jasoratning dushmani;

5. O‘z fikriga ishonish, o‘zgarlar fikrini hurmat qilish hamda mustaqil hukm chiqarish qobiliyati bo‘lishi shartligi – jasorat.

Yuqoridagi fikrlarga tayanib aytish mumkinki, olamning o‘zbek lisoniy manzarasida “jasorat” tushunchasi keng qirralidir. Xususan, yurt botirlariva yurt allomalari, aynan, “jismoniy jasorat” va “ma’naviy jasorat” tushunchasi hisoblanadi, xalq bu zotlarning jasoratiga taqlid qiladi. Shu nuqtayi nazardan “jasorat” leksemasi yadrosidan uzoqroq joylashadigan, biroq xalq lisoniy ongida va jonli nutqida jasoratni eslatib turadigan tushunchalar borki, bu “jasorat” leksemasining yaqin va uzoq periferiyasidan joy oladi.

1.1.4-jadval

“Jasorat” leksemasining yaqin periferiyasi	“Jasorat” leksemasining uzoq periferiyasi
botinmoq	kuch-g‘ayrat
tetiklanmoq	azob-uqubat
xavf-xatarniyenggan	jangu-jadal
harakatchan	yigit
yigitlik	isyon
yigitchasiga	mardon
intilish	ezilgan, qiynalغان
namuna	o‘lim
intiluvchan	kurash
yurakli	izlanuvchi
mahorat	kashfiyot
alp	g‘ayritabiy kuch
bunyodkorlik	mo‘tadillik
kuchli,	dilkashlik
ezgulik	buyuk
kurashmoq	maqсад
mehnat	dehqonlar
o‘zbek xalqi	davatkor
alloma	tik boqish
sevgi	kashfiyotchi
lochin	qiyinchilik

Tarixiy-etimologik tahlil natijasida “jasorat” konseptining konsepsiyasi va konseptosferasi shakllanadi. Leksemani tarixiy nuqtayi nazardan semantikasi o‘rganish uning bugungi kundagi pozitsiyasini ham belgilaydi. Masalan, “O‘ktam” leksemasining tarixiy va bugungi kundagi semantic taraqqiyotida sezilarli o‘zgarish yuz bergan.

Tilimizdagi so‘zlar tarkibidagi umumiy ma’nosiga ko‘ra birlashuvchi, xususiy ma’nosiga ko‘ra bir-biridan farqlanuvchi belgilariga ega. Leksik ma’nolardagi paradigmatic munosabat ikki jihatga ko‘ra bo‘ladi: 1) ma’lum mavzu jihatdan 2) semantik jihatdan. So‘z leksik ma’nolaridagi paradigmatic munosabatga ma’lum mavzu jihatdan qaralganda, leksik ma’nosi bo‘yicha so‘zlar turli mavzu doirasida guruhlariga ajratiladi. “Til birliklari kishi xotirasida turli-tuman sistem munosabatlarda yashaydi va bu sistem munosabatlarni tashkil etuvchilari

orasidagi bog‘lanish paradigmatic munosabat deyiladi”¹⁶. Bunday munosabat atov birliklarning kishi xotirasida oson va qulay foydalanishga imkon beradi. O‘zbek tilshunosligida A.Nurmonov, N.Mahmudov, E.Begmatov, Sh.Safarov, A.Mamatov, M.Hakimov, S.Mo‘minov, D.Xudoyberganova, D.Lutfullayeva, Sh.Usmonova, S.Boymirzayeva, A.Rahimov, I.Azimova, N.Hoshimovalarning tadqiqotlarida til tizimi antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida tadqiq etilgan. Lisoniy birliklar bir-birini eslatib turish xususiyatiga ega bo‘lganligi sababli ularga oid bo‘lgan leksemalarning semalaridagi aloqadorlik inobatga olinadi. Xususan, *jasorat* leksemasi *qahramonlik* leksemasini, *mard* leksemasi *jasur* leksemasini, *dovyurak* leksemasi *qahramon* leksemasini eslatadi. Lekin *jasorat* leksemasi to‘g‘ridan to‘g‘ri *ezgulik* yoki *yovuzlik* leksemasini eslatmaydi. Sababi ular ichki uyalar orqali o‘zining ma‘naviy guruhlarini hosil qiladi. Jasorat va unga tegishli leksemalarni eslatuvchi birliklar umumiy o‘xshash belgilarga ega bo‘ladi. Jumladan, *jasorat* leksemasining semalarida *jasoratlilik*, *kuchlilik*, *qahramonlik*, *mardlik*, *jasurlik*, *botirlik* ammo ular farqli belgilarga ham ega bo‘lishi bilan xarakterlanadi, ya‘ni *jasorat mardlik* leksemadan, *qahramonlik dovyuraklik* leksemasidan farq qiladi. Ba‘zi o‘rinlarda umumiy semalar bilan birlashish xususiyatiga ega. “Ma‘naviyat” sistemasini tashkil etuvchi unsurlar sifatida *jasorat* umumiy semali atov birliklari orasidagi paradigmatic bog‘lanishni tahlilga olamiz. Paradigma qatorida *polvon*, *buyuk*, *ulug‘vorlik*, *baquvvat*, *komil*, *shuhratli*, *fidoyi*, *qat‘iyat*, *avliyo*, *muvaqqiyatli* leksemalari o‘rin olgan. Ularning barchasiga umumiy bo‘lgan “jasoratlilik”, “kuchlilik”, “qahramonlik”, “mardlik” semalari umumiy ma‘nolari ostida birlashadi. Ayni vaqtda ularning har biri o‘zining xususiy ma‘nosiga ega, ya‘ni tarkibidagi semalarning ifodalanishi bir-biridan farq qiladi. Bu quyidagi jadvalda aks etgan.

1.3.1-jadval

Jasorat umumiy semali atov birliklarning o‘xshash va farqli tomonlari						
Umumiy semalar	jasoratlilik	kuchlilik	qahramonlik	mardlik	jasurlik	botirlik
Jasorat	+	+	+	+	+	+
Polvonlik	+	+	+	+	+	+
Ulug‘vorlik	+	+	-	-	+	-
Jo‘mardlik	+	+	-	+	+	+
Komil	+	-	+	+	+	-
Fidoyi	+	-	+	+	-	+
Shuhratli	-	+	+	-	+	+
Qat‘iyat	+	-	-	+	+	-
Baquvvat	-	+	-	+	+	+
Muvaqqiyatli	+	-	+	+	+	-
Quvvat	+	+	-	-	+	+
Zabardast	-	+	-	-	+	+

Ikkinchi bob “O‘zbek tilidagi “jasorat” umumiy semali atov birliklarini ifodalovchi leksik vositalar” deb nomlangan bo‘lib, unda o‘zbek tilidagi “jasorat” umumiy semali atov birliklarining semantik va shakliy strukturasi, “jasorat”

¹⁶Sayfullayeva R. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2005. – B. 14.

umumiy semali atov birliklarning polisemantik xususiyatlari, o‘zbek tilidagi “jasorat” umumiy semali atov birliklarining maqollardagi lingvokulturologik va semantik tahlili haqida fikr yuritiladi.

Nutqimizdagi har qanday borliq hodisasi lisoniy idrok etilmas ekan, uning tub ma’nosi ongda chuqur o‘rin egallaganligiga ishonch hosil qilish mumkin emas. Bu esa borliq hodisasining ijtimoiy va shaxsiy ongda qay darajada rivojlanib, faollashib borishi bilan belgilanadi. O‘zbek xalqiga xos bo‘lgan halollik, samimiylik, vijdon, poklik, mehr-oqibat kabi tushunchalar milliy e’tiqodimizning mohiyati, uni shakllantiradigan asosiy mezonlaridan ekanligini anglash mumkin¹⁷.

“Ma’naviy jasorat” o‘z ichida quyidagi turlarga bo‘linadi.

“Aqliy jasorat” ma’noviy uyasi. Ushbu uya o‘z ichida quyidagi atov birliklar bilan kengayadi: *jasorat, chidamlilik, toqat, qanoat, shukur, matonat, qat’iyat, chidam, sabru qaror, sabru toqat, qone, qiyinchilik, dard, alam, azob va bag‘rikenglik, toqat qila olish qobiliyati, to‘zim, toqat, sabr-bardosh.*

“Vatanparvarlik yo‘lidagi jasurlik” ma’noviy uyasi: *vatanni madh etish, vatan uchun fidokorlik, vatanparvarlik, vatanni sevish, vatan uchun fidoyi, vatanparvarlik his-tuyg‘isini takomillashtirish;*

“Maqsadlarga erishish yo‘lidagi jasurlik” ma’noviy uyasi: *kurashuvchanlik, tinib-tinchimaslik, intilish, iroda, qat’iyat, qat’iy qaror, doimiy intilish, jazm qilmoq, qasd qilmoq, qat’iyatli harakat*¹⁸.

“Jismoniy jasorat” o‘z ichida quyidagi turlarga bo‘linadi.

“Polvonlik jasurlik” mavzuviy guruhi: *bahodir, bahodirona, rustamday, bahodirlik, botirlarcha; yurakli, yuragida o‘ti bor, qo‘rqmas;*

Mazkur guruhlariga oid leksemalarning shakliy xususiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Har ikki ma’noviy guruh leksemalar ma’nosiga qarab ichki guruhlariga bo‘linishda davom etishi mumkin. Bu leksemalarning polisemantik xususiyati bilan bog‘liq.

So‘zning leksik ma’no taraqqiyoti va uning semantik qirralarida shakl va ma’no munosabati, ma’noviy bir xilligi hamda qarama-qarshiligi, shakliy o‘xshashligi va dennotativ, konnotativ ma’nolari muhim o‘rin tutadi.

So‘zlarning shakl va ma’no tomoni I.Qo‘chqortoyev, Sh.Rahmatullayev, R.Yunusov kabi tilshunos olimlarning leksik ma’no tavsifiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida atroflicha o‘rganilgan¹⁹. Shunga qaramay, o‘zbek tilidagi “jasorat” umumiy semali atov birliklarining shakl va ma’no munosabati hozirga qadar tilshunosligimizning alohida tadqiq manbai bo‘lgan emas. Zero, “har bir xalqning

¹⁷Yuldashev F. O‘zbek tilining “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasi “e’tiqod” ma’noviy guruhi atov birliklari tizimi”: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Termiz, 2021. – B. 29

¹⁸ Bu haqida qarang. Yuldashev F. O‘zbek tilining “ma’naviyat” leksik-semantik kategoriyasi “e’tiqod” ma’noviy guruhi atov birliklari tizimi”: Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) ... diss. avtoref. – Termiz, 2021. – B. 52.

¹⁹Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Тошкент: Фан, 1977. – Б. 40; Раҳматуллаев Ш., Юнусов Р. Семемаларнинг семалар состави ва семантик боғланиш масаласи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1974. – №1. – Б. 51-53; Раҳматуллаев Ш. Семема – мустақил тил бирлиги // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1984. – № 5. – Б. 17-20; Юнусов Р. Полисемия и синонимия имена существительных места в современном узбекском литературном языке: Автореф. дисс. ...канд.филол. наук. – Тошкент, 1974. – С. 15.

atamashunoslik tizimida shakl va mazmun birligi hamda ularning mutanosibliigi masalasi muhim o‘rin tutadi”²⁰.

Jasorat leksemasini shartli ravishda yaxlit kategoriya sifatida qarasaq, *ma’naviy jasorat* va *jismoniy jasorat* birliklarini *jasorat* kategoriyasining tarkibiy qismlari, konseptlari sifatida ajratish mumkin. Bu unsurlarning har biri alohida mikrosistemani tashkil etib, o‘z ichiga ko‘plab tushunchalarni olishi mumkin. Masalan, *ma’naviy jasorat* unsuri *barkamol, komil, qobiliyatli, jur’at, vatanparvar, qahramon*; *jismoniy jasorat* unsuri *kuchli, mard, bardam, dovyurak, jangovor* kabi ichki kategoriyalarga ega. Bularning har biri o‘z o‘rnida ichki mikroguruhlariga bo‘linadi.

“Jasorat” semali leksemalar grammatik jihatdan, asosan, sifat, ot, fe‘l, ravish turkumlariga mansub. Bunday birliklar sirasida ravish va fe‘l turkumiga oid so‘zlar miqdor jihatdan unchalik ko‘p emas.

Polisemantik xususiyatga ega “jasorat” umumiy semali atov birliklarning ma’nosi matnda “botir – jasur, yovqur” ma’nolarida yanada yorqinlashadi hamda lingvistik “jilolanadi”.

*Aqlim tanidim-u qoshimda shukun,
Jasur akalarim safini ko‘rdim* (A.Oripov. “Tabiat”).

Mazkur “jasur aka” birikmasi “jismoniy kuch” ma’nosidan tashqari “*ma’naviy kuch*” hamda “*ma’naviy jasorat*” ma’nosida kelgan.

Maqollar xalq donishmandligining nodir namunasi sifatida og‘zaki badiiy ijodning keng tarqalgan mustaqil janridir. Shartli ravishda ularni xalq ona axloq-odob qoidalari deb atash mumkin. Zero, maqollar xalqning asrlar davomida hayotiy tajribalarida sinalgan ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-madaniy, axloqiy-falsafiy qarashlarining g‘oyat ixcham, lo‘nda, siqiq va obrazli ifodasidan tug‘ilgan hodisadir. Maqollar maxsus ijod qilinmaydi, balki ma’lum bir sharoit taqozosi tufayli sinalgan hayotiy tajribadan tug‘iladigan xulosaning axloqiy bahosi sifatidagi hukm bo‘lib yuzaga keladi²¹.

Alpomish, Rustamxon kabi bir necha alplarning avlodlari o‘zbek xalqining mard jasurligi bir necha ming yilliklardan buyon sayqallanib “jasorat” semali maqollarda lo‘nda va juda tushunarli qilib tasvirlangan. Buni quyida bilvosita va bevosita jasorat ma’nosidagi maqollarni semantik tahlilida ko‘ramiz. Avvalo, “jasorat” umumiy semali atov birliklarini ma’noviy guruhlariga ajratib olish o‘rganilayotgan mavzuning sistemasini ko‘rsata oladi. Shu boisdan “jasorat” umumiy semali atov birliklarni quyidagi guruhlariga ajratishimiz mumkin:

1. “Ma’naviy jasorat”ni aks ettiruvchi maqollar:

1.1. “Vatanparvarlik yo‘lidagi jasorat” umumiy semali maqollar:

*Dushmanga nafrati bo‘lmaganning,
Vatanga muhabbati bo‘lmas.*

1.2. “Maqsadlarga erishish yo‘lidagi jasorat” semali maqollar.

²⁰ Кўчимов Ш. Ўзбек миллий ҳуқуқий атамаларида шакл ва мазмун бирлиги муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2001. – № 6. – Б. 36.

²¹ Safarov O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent, 2000. – 291 b.

*Intilgan elga yoqar.
Sendan harakat, mendan barakat
Harakat, harakatda barakat.*

1.3. “Allomalik darajasiga yetish yo‘lidagi jasorat” semali maqollar:

*Izlagan olim bo‘lar, o‘ylagan – fozil;
Ko‘p o‘qigan olim bo‘lsa,
Ko‘pni ko‘rgan dono bo‘lar;
Olim adashsa, olam qoqilar.*

2. “Jismoniy jasorat”ni aks ettiruvchi maqollar:

2.1. “Mard” leksemali maqollar:

*Mardga taqlid et,
Nomardni tanqid et.
Mard – kurashda, do‘st – tashvishda,
Dono g‘azabda sinalar.*

2.2. “Botir” leksemali maqollar:

*Botirdan o‘lim ham qo‘rqar.
Ajali botirdan bezadi, qo‘rqoqni ezadi.*

2.3. “Arslon” va “yigit” leksemali maqollar:

*Arslon izidan qaytmas,
Yigit – so‘zidan.
Sher bolasi ovni yengar,
Er bolasi – yovni.
Itni ovga borgandasina,
Yigitni – yovga borganda sina.*

2.4. “Jasur” leksemali maqollar:

*Jasur bo‘lsang, yov qaytar.
Jasur bo‘lsang, yovga chop.
Jasur jangda sinalar.
Jasur jangdan qo‘rqmas.*

2.5. “Alp” leksemali maqollar:

*Yolg‘iz yigit alp bo‘lar, Alp bo‘lsa ham, qalp bo‘lar.
Bilagi zo‘r alp birniyiqar, Do‘sti ko‘p – mingni.
Alp – otadan, zot – onadan
Alp – enadan, tulpor – biyadan.*

“O‘zbek tilidagi “jasorat” semali atov birliklarining leksikografik talqini muammolari” deb nomlangan dissertatsiyaning 3-bobida O‘zbek tilining izohli

